

BIOLOGIYA FANINI O`QITISHDA LABORATORIYA ISHLARINING AHAMIYATI

Urazova Firuza Urazboyevna

Yunusobod tumani 247-maktab

Biologoya fani Ôqituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada biologiya fanini o`qitishda laboratoriya ishlarini tashkil etishning ta`lim tarbiyada hamda fanni chuqur o`zlashtirishda tutgan o`rni haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar: *laboratoriya ishi, amaliy ish, ko`nikma, vazifa, mustaqil ish,*

Abstract: *This article discusses the role of laboratory studies in teaching biology in education and in-depth study of the subject.*

Keywords: *laboratory work, practical work, skill, task, independent work, knowledge.*

KIRISH

UMUMIY O`RTA TA`LIM MUASSASALARIGA AJRATILGAN O`QUV-LABORATORIYA JIHOZLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ULARNI SAQLASH BO`YICHA NIZOM O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004-2009 yillarda Maktab ta`limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to`g`risida»gi 2004 yil 21 maydag'i PF-3431-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 9 iyuldag'i «2004-2009 yillarda Maktab ta`limni rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 321-sonli qarori asosida umumiyl o`rta ta`lim muassasalariga ajratilgan o`quv-laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish va ularni saqlash tizimini yaratish, bu borada umumta`lim maktablari o`qituvchilarini va rahbarlarining shaxsiy javobgarligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan. Biologiyani fanini chuqur o`rganishda laboratoriya ishlarini olib borishi muhim ahamiyatga ega. Yangi bilim va amaliy ko`nikmalarni shakllantirish, amaliy o`qitish usullaridan foydalanish laboratoriya ishining asosiy mohiyati hisoblanadi. O`quv jarayoniga qo`yiladigan zamонавиј талаблар о`qituvchilar faoliyatini tashkil etish orqali bilim, ko`nikmalarni shakllantirishga yo`naltiradi. Laboratoriya ishini biologik ob`ektlardan, ko`rgazmali qurollardan, biologik moslamalar va materiallardan mustaqil foydalanish kabi zarur ko`nikmalarni shakllantirish bilan birlgilidka nazariy bilimlarni qo`llash, chuqurlashtirish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyat deb ta`riflash mumkin. Laboratoriya mashg`uloti - maxsus jihozlangan o`quv-laboratoriya xonasida tashkil etilib, o`qituvchi ishning maqsadini tushuntiradi va o`quvchilarni topshiriqni bajarish algoritmi (tartibi) bilan tanishtiradi. Laboratoriya ishida bajarilishi lozim bo`lgan amallar aniq o`rnatilgan tartibda bajarilishi talab etiladi. Amaliy mashg`ulot - o`qituvchi rahbarligida va uning hamkorligida bajariladi. Mashg`ulot bir nechta tashkiliy qismlarga boinadi. Amaliy mashg`ulotni darsga

qiyoslash mumkin. umumiy o'rta ta'lim maktablari biologiya fani o'qituvchilari biologiya fani boyicha laboratoriya mashg'ulotlariga qo'yilgan zamonaviy talablarni, fan kabineti va laboratoriya xonasini tegishli o'quvlaboratoriya anjomlari bilan jihozlash bo'yicha mey'orni va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishni, biologiya fanini o'qitish shakllarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Laboratoriya vazifalari: o'qituvchilarning biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish uchun laboratoriya va amaliy mag'ulotlarni qo'llash haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish; biologiya darslarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Laboratoriya ishlarining aksariyati tadqiqotchilik faoliyatini olib borishga asoslangan bo'ladi. Laboratoriya ishi bu – asbob uskunalar va boshqa moslamalardan foydalangan holda tajribalar o'tkazish, biologik jarayonlarni maxsus jihozlar yordamida o'rghanishdir; Laboratoriya ishlarini tashkil etish asosan quyidagi bosqichlarda olib boriladi:

1. Laboratoriya ishi yuzasidan vazifalarni belgilash;
2. O'rghanilayotgan material yoki ob`yekt tarkibibg xususiyatlari haqida ma'lumot berish va suhbat o'tkazish;
3. Tajribalarni mustaqil bajarishga kirishish.
4. Tajriba yuzasidan olingen natijalarni tuzatish, xulosalarni shakllantirish
5. Olib borilgan tajriba yuzasidan yakuniy suhbat o'tkazish hamda keyingi laboratoriya ishi yuzasidan vazifa berish

O'quv dasturining ajralmas qismi sifatida laboratoriya ishlari muhim bo`lib, ularni amalga oshirish har bir o'qituvchi uchun katta mas`uliyatni yuklaydi. Laboratoriya mashg`uloti davomida o'quvchilar olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko`nikmalariga ega bo`ladilar.

Biologiyani fanlarini o'qitishda laboratoriya mashg`ulotlari ta'lim tarbiya berishning omili sifatida asosiy darslardan biri hisoblanadi jumladan:

1. Tabiiy ob`ektlarni o'rghanish bilan o'rghanilayotgan material haqida aniq tushunchaga ega bo`ladilar hamda ma'lumotlar uzoq vaqt xotirada saqlaydilar
2. Laboratoriya mashg`ulotlarida o'quvchilar mustaqil ravishda bilim olishga o'rghanadilar.
3. Laboratoriya mashg`ulotlari jarayonida o'quvchilar bir qator amaliy ko`nikmalarni egallaydilar.

4. Laboratoriya mashg`ulotlari o'quvchilarni biologiya fanlarini o'rghanishga bo`lgan qiziqishini rivojlantiradi.

5. Laboratoriya mashg`ulotlari oddiy darslardan farqli ravishda o'quvchilarda mehnat madaniyatini, ongli intizomni tarbiyalaydi, o'quvchilarga mehnatni muayyan natijaga olib kelishini ko`rsatadi. Laboratoriya mashg`ulotlari ikki shaklda o'tkazilishi

mumkin: frontal (o`qituvchining ko`rsatmasi bilan) va oldindan tayinlangan topshiriq bo`yicha. Frontal laboratoriya mashg`ulotlarida ish qismlarga bo`linadi, har bir qism uchun o`qituvchi o`quvchilarga bir vaqtning o`zida bajaradigan alohida ko`rsatmalarni beradi. Ish bir vaqtning o`zida, o`z vaqtida yakunlanadi.

O`quvchilar materialni osongina o`rganadilar; o`qituvchi ishning qanday bajarilishini baholab boradi. Bunday darslar qatiy tartib – intizom hamda xavfsizlik qoidalariga amal qilgan holda o`qituvchining nazorati va kuzatuvi ostida olib boriladi.

Oldindan tayinlangan topshiriq bo`yicha olib boriladigan laboratoriya mashg`ulotida o`quvchilar bajarish kerak bo`lgan barcha ishlarni darhol ish davomida oladilar. Bunda o`quvchilarga tashabbuskorlik bilan mustaqil ish olib borishga imkoniyati beriladi.

Laboratoriya mashg`ulotlarini tashkil etishda o`qituvchi quyidagilarni bajarishi kerak:

1. O`quvchilar bajarishi kerak bo`lgan ishning maqsadi va mazmunini aniq belgilab uni amalda sinab ko`rgan bo`lishi.

2. Laboratoriya ishini olib borish rejasini tuzib, ishning ketma-ketligini, kirish suhabatining mazmunini, mustaqil ish uchun topshiriqga ko`rsatmalarni tayyorlagan bo`lishi.

3. Laboratoriya mashg`ulotlari uchun zarur bo`lgan barcha jihozlarni oldindan tayyorlagan bo`lishi

4. Dars boshida laboratoriya ishining topshiriqlari doskaga joylashtirilgan bo`lishi Laboratoriya ishlari daftarda rasmiylashtirib borilishiga o`qituvchi tomonidan ko`rsatma beriladi hamda muntazam nazorat qilib boriladi.

O`quvchilar ushbu daftarga laboratoriya ishining mavzusi va maqsadini, kerakli jihozlarning nomini, bajarilgan ishlarning sonini hamda tajriba yuzasidan olingan xulosalarni yozishlari kerak. Tajribadan olingan natijalarini aniq ifodalashda quyidagi jadval beriladi: T/r Bajarilgan ishlar Nimani ko`rdilar va o`rgandilar

Xulosa

Bundan tashqari biologiya fanida o`tkazilgan tajribalarning borish sxemasi, ob`yejtlarning rasmilarini rasm albomga chizib borilishi ham bilim olishning samarali usullaridan hisoblanadi. Sababi o`rganilayotgan o`simliklar, hayvonlarning tashqi va ichki tuzilishi tasviri chizib borilsa, tasviriy xotira orqali bilimlari mustahkamlanishiga olib keladi. Laboratoriya ishlarida biologik materiallardan foydalanish o`quvchilarda: tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash, baho berish, xulosa chiqarish, o`z fikrini bildirish va uni asoslash, ma`lumotni yig`ish, ish natijalarini turli shakllarda (xulosalar, tezislar, mantiqiy jadvallar va boshqalar) taqdim etish kabi o`quv ko`nikmalarini rivojlantiradi. Shunday ekan biologiya fanlarini o`qitishda laboratoriya mashg`ulotlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Биологическое и экологическое образование в школе и вузе: теория, методика, практика” Сборник статей. Санкт-петербург 2017 (стр 79)
2. J.O. Tolipova “Biologiyani o`qitishda innovatsiontexnologiyalar” T.2013 (141 bet)